



TOSHKENT SHAHAR  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2024- yil  
yanvar- iyul

2024-yilning yanvar-iyul oylarida, Toshkent shahrida jami 24 377,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 117,3 % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

### Yirik korxona va tashkilotlar

6,3

36,1

57,6

Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

# 2024- yil 1-avgust holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*



## Yillar kesimida soni

2024- y.	6 832
2023- y.	7 010
2022- y.	9 313

3 349

Bino va inshootlar  
qurish

712

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

2 771

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

## Hududlar kesimida

Mirzo Ulug'bek	894
Yunusobod	816
Chilonzor	793
Yashnobod	770
Yakkasaroy	699
Mirobod	589
Olmazor	501
Shayxontohur	492
Sergeli	430
Uchtepa	368
Yangihayot	291
Bektemir	189

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 97,5 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'naliishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'naliishi 49,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,1 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'naliishi 10,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'naliishi 40,6 foiz ulushni va 95,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.08.2023- y.	01.08.2024- y.	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>7 010</b>	<b>6 832</b>	<b>97,5</b>

tumanlar:

Bektemir	173	189	109,2
Mirzo Ulug'bek	928	894	96,3
Mirobod	621	589	94,8
Olmazor	517	501	96,9
Sergeli	433	430	99,3
Uchtepa	431	368	85,4
Chilonzor	835	793	95,0
Shayxontohur	511	492	96,3
Yunusobod	841	816	97,0
Yakkasaroy	722	699	96,8
Yangihayot	236	291	123,3
Yashnobod	762	770	101,0



**2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra,  
Toshkent shahrida  
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




Mirzo Ulug‘bek (13,1)



Yunusobod (11,9)



Chilonzor (11,6)



## Qurilish ishlari 2024- yil yanvar- iyul oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Toshkent shahar</b>	<b>24 377,3</b>	<b>8 794,0</b>	<b>14 051,5</b>	<b>1 531,8</b>
<b>tumanlar:</b>				
Bektemir	673,5	188,3	444,1	41,1
Mirzo Ulug'bek	2 804,2	726,0	1 885,1	193,2
Mirobod	3 214,1	1 123,3	1 968,4	122,4
Olmazor	1 711,6	596,1	981,3	134,2
Sergeli	935,3	163,4	638,8	133,2
Uchtepa	877,4	160,1	570,2	147,1
Chilonzor	2 139,9	364,8	1 654,2	120,9
Shayxontohur	2 070,7	1 259,4	687,4	124,0
Yunusobod	4 252,0	2 786,1	1 312,1	153,7
Yakkasaroy	2 560,3	732,8	1 711,5	115,9
Yangihayot	1 046,1	243,8	692,4	110,0
Yashnobod	2 092,2	450,1	1 505,9	136,2

2024- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 8 794,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 182,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 36,1 % ni tashkil etdi.




# Qurilish ishlari


## 2024- yil yanvar-iyul oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 65,8 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 533,4 %) Shayxontohur tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 60,8 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 276,6 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,6 %i to‘g‘ri kelib, 2023-yil yanvar-iyul oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 10,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil etgan holda 14 051,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



57,6

2024- yil  
yanvar-iyul

68,3


2023- yil  
yanvar-iyul



**MA‘LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush hududdagi ko‘rsatkichi Chilonzor tumanida (1 654,2 mlrd. so‘m yoki ulushi 77,3 %) Yashnobod tumanida (1 505,9 mlrd. so‘m yoki ulushi 72,0 %), va Yakkasaroy tumanida (1 711,5 mlrd. so‘m yoki ulushi 66,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 6,3 %ni tashkil etdi yoki 1 531,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 87,4 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 587,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 23 790,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,8 % va 97,2 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2024- yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **60,7 %** i yoki **14 803,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**43,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **6 447,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **43,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **7 508,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **50,7 %** ni tashkil etdi.

**50,7 %**

**5,7 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **848,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **5,7 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>24 377,3</b>	<b>117,3</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:			
Bektemir	673,5	102,7	2,8
Mirzo Ulug‘bek	2 804,2	122,3	11,5
Mirobod	3 214,1	101,0	13,2
Olmazor	1 711,6	114,8	7,0
Sergeli	935,3	110,8	3,8
Uchtepa	877,4	117,1	3,6
Chilonzor	2 139,9	106,8	8,8
Shayxontohur	2 070,7	135,4	8,5
Yunusobod	4 252,0	152,4	17,4
Yakkasaroy	2 560,3	108,6	10,5
Yangihayot	1 046,1	101,2	4,3
Yashnobod	2 092,2	112,4	8,6



**Ma’lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko’satish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

20,9

2023- yil  
yanvar-iyul

34,4

65,6

56,7

13,5

2024- yil  
yanvar-iyul

8,9

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 34,4 % ni tashkil etib, 2023- yil yanvar-iyul ko'rsatkichga nisbatan 13,5 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,9 % punktga kamayib, 56,7 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,6 % punktga kamayib, 8,9 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 49,6% ni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-iyulga nisbatan 17,2 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 50,4 % (17,2 % punktga kamayish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil yanvar-iyul



Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmili sektor

2024- yil yanvar-iyul

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga ko'paydi va 29,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 70,3 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,1 % punktga kamaydi.

ulushi % da

**22,6**

2023- yil  
yanvar-iyul

2023- yil  
yanvar-iyul

**77,4**

**29,7**

2024- yil  
yanvar-iyul

2024- yil  
yanvar-iyul

**70,3**

*Yirik qurilish  
tashkilotlari  
ulushi*

*Kichik korxona va  
mikrofirmalar  
ulushi*


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Toshkent shahar</b>	<b>24 377,3</b>	<b>17 176,4</b>	<b>3 743,4</b>	<b>3 457,5</b>
<b>tumanlar:</b>				
Bektemir	673,5	500,1	103,2	70,2
Mirzo Ulug'bek	2 804,2	1 963,1	421,5	419,6
Mirobod	3 214,1	2 444,7	509,9	259,5
Olmazor	1 711,6	1 235,6	312,0	164
Sergeli	935,3	606,1	138,6	190,6
Uchtepa	877,4	564,2	145,9	167,3
Chilonzor	2 139,9	1 568,0	324,3	247,6
Shayxontohur	2 070,7	1 388,9	253,2	428,6
Yunusobod	4 252,0	3 009,6	600,3	642,1
Yakkasaroy	2 560,3	1 692,2	423,0	445,1
Yangihayot	1 046,1	778,4	158,4	109,3
Yashnobod	2 092,2	1 425,5	353,1	313,6

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul



ulushi % da



■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ■ Fuqarolik obyektlarini qurish ■ Bino va inshootlarni qurish

## 2024- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani (4 252,0 mlrd.so'm), Mirobod tumani (3 214,1 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani ( 2 804,2 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (2 560,3 mlrd.so'm), ga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)